

DAVLAT XIZMATIDA KORRUPSIYAGA QARSHI BARQARORLIK DIAGNOSTIKASI

Toshkent davlat transport universiteti

Iqtisodiyot fakulteti 4-kurs talabasi

A'zamova Dilnura Dilmurod qizi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada biz O'zbekiston Respublikasi uchun dolzarb bo'gan davlat xizmatidagi korupsiyaga qarshi kurashish muammosiga alohida to'xtalib o'tsak. Davlat organlari sohasida korupsiyaga qarshi kurashish mexanizmlarini ishlab chiqish hamda ushbu sohada vujudga kelayotgan muammolarni aniqlash va ularni bartaraf etish masalalari izchil tahlil qilingan. Zamonaviy O'zbekistonda korupsiyaga qarshi davlat siyosatini yuritish bo'yicha barcha chora-tadbirlarni asoslab berilmoqda.

Kalit so'zlar: korupsiya, korupsiyaga qarshi kurashish davlat xizmatlarida korupsiya, xalqaro standartlar, korupsiyaga qarshi kurash agentligi.

Kirish

Hozirgi kunda yurtimizda korupsiyaga qarshi kurashish muhim ahamiyatga ega sohalardan biri bo'lib hisoblanadi. Ayniqsa, iqtisodiyot, huquqni muhofaza qilish va davlat faoliyatining boshqa sohalarida amalga oshirilayotgan islohotlarning dastlabki bosqichida yo'l qo'yilgan jiddiy noto'g'ri hisob-kitoblar, qonunchilik bazasining mukammal emasligi, samarali boshqaruv siyosatining yo'qligi korupsiyaning kuchayishiga sabab bo'lgan asosiy omillar bo'ldi.

Sh.Mirziyoyev O'zbekiston Prezidenti etib saylangan vaqtdan boshlab korupsiyaga qarshi kurashish va bu salbiy illatga qarshi kurashishni o'zining dasturiy vazifasini deb e'lon qildi. Prezidentning Oliy Majlisga Murojaatnomasida jamoatchilik nazoratini yanada kuchaytirish, davlat va jamiyat o'rtasida o'zaro yaqin hamkorlik o'rnatish maqsadida **Jamoatchilik palatasi** tashkil etish taklifi bildirildi. Korupsiya iqtisodiyot rivoji, chinakam qulay tadbirkorlik va investitsiya muhiti uchun eng asosiy to'siqlardan biri bo'lib,

bu illat jahon iqtisodiyotiga har yili o'rtacha 2,6 trillion dollar keltiradi. O'zbekiston ham bu muammodan xalos bo'lmagan. Dunyoda zarar korupsiya darajasini o'rganuvchi Transparency International xalqaro tashkiloti indeksida O'zbekiston oxirgi uch yilda 12 pog'onaga ko'tarilgan bo'lsa-da, hali bu illat butunlay barham topmagan. O'zbekiston aholisning fikricha, sog'liqni saqlash, ta'lim, bank, bojxona, sud, prokuratura, ichki ishlar, kommunal xizmat sohalarida, shuningdek fuqarolarni ishga qabul qilishda korrupsiya keng tarqalgan.

Asosiy qism

Korrupsiyaga qarshi kurashishning eng asosiy yo'li davlat organlari faoliyati va ish jarayonlarini shaffof qilishdir. Bunda eng asosiy e'tiborni ishga olish, davlat xaridlari, ruxsatnoma va litsenziyalar berish kabi jarayonlarda ochiq-oshkoralikni ta'minlashga qaratish lozimligi belgilandi.

O'zbekiston qonunchiligidagi ushbu muhim yangilik davlat xizmatida shaffoflikni ta'minlash yo'lidagi ulkan qadamdir. Davlat xizmatida "halollik testi" - Korrupsiyaga qarshi barqarorlik diagnostikasi joriy etiladi.

O'zbekistonda korrupsiyaga qarshi kurashishning yangi, tizimli bosqichi boshlanmoqda. Endilikda davlat idoralarida shunchaki nazorat o'rnatish bilan cheklanilmay, xodimlarning ichki psixologik va kasbiy barqarorligi, ya'ni "korrupsiyaga moyilligi" maxsus diagnostikadan o'tkaziladi¹.

2025-yilning 9- dekabrda qabul qilingan "Davlat xizmatida boshqaruv samaradorligini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Prezident Farmoniga ko'ra, davlat xizmatchilari uchun korrupsiyaga qarshi barqarorlik darajasini aniqlash tizimi bosqichma-bosqich amaliyotga tatbiq etiladi. Korrupsiyaga qarshi kurashish milliy rejasi ko'proq umumiy chora-tadbirlar tizimi bo'lib, qonunlar va boshqa me'yoriy hujjatlar bilan yanada to'ldirilib,² aniqlashtiriladi. Korrupsiyaga qarshi kurashish milliy rejasi, birinchi navbatda, mulkiy nazorat qilinadigan shaxslar doirasini kengaytiradi.

¹ "Davlat xizmatida boshqaruv samaradorligini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Prezident Farmoni

² Shavkat Mirziyoyev korrupsiyaga qarshi kurashning yangi tuzilmalarining tashkil qilish bo'yicha yig'ilishi 11.02.2020

Jarayon barcha davlat idoralarini bir vaqtning o‘zida qamrab olmaydi, balki xavf darajasidan kelib chiqib, uch bosqichda amalga oshiriladi:

N	Kimlar diagnostikadan o‘tadi?	Muddat
1	Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmalari (komplayens-nazorat) rahbarlari va xodimlari.	2026-yil 1-yanvardan
2	Nazorat inspeksiyalarida korrupsiyaviy xavfi "yuqori" va "o‘rta" bo‘lgan lavozim egalari.	2026-yil 1-iyundan
3	Barcha boshqa davlat organlaridagi xavfli lavozimlarda ishlovchi xodimlar va nomzodlar.	2027-yil 1-yanvardan

Diagnostika jarayoni xolislikni ta’minlash maqsadida Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi buyurtmasiga asosan Rahbar kadrlarni baholash markazi tomonidan o‘tkaziladi. Bu xodimning faqat bilimini emas, balki qiyin vaziyatlarda qaror qabul qilish qobiliyati va axloqiy prinsiplarini baholashga xizmat qiladi.

Ushbu diagnostika shunchaki rasmiyatchilik emas. Agar xodimning korrupsiyaga barqarorlik darajasi “past” deb topilsa, bu u uchun jiddiy huquqiy oqibatlarni keltirib chiqaradi:

- Lavozimga nomuvofiqlik: Mazkur xodim o‘zi egallab turgan "xavfli" lavozimda faoliyatini davom ettira olmaydi.
- Majburiy rotatsiya: Xodim korrupsiyaviy xavf-xatar darajasi past bo‘lgan boshqa ishga o‘tkaziladi.

Mazkur islohot davlat organlariga nafaqat bilimli, balki ma’naviy jihatdan pok kadrlarni saralab olish imkonini beradi. Bu tizim korrupsiyaning oqibati bilan kurashishdan ko‘ra, uning barvaqt oldini olishga qaratilgan samarali filtr bo‘lishi kutilmoqda.

Davlat xizmatiga nomzodlarni tanlash - rejaga muvofiq - endi ancha qattiqlashdi. Xodimlarning malakasi va ularning ma'naviy fazilatlariga qo'yiladigan talablar oshdi. "O'zbekiston Respublikasi korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi faoliyatini yanada takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risi"dagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarorida quyidagilarga alohida e'tibor qartilgan va korrupsiyaga qarshi kurashishning tashkiliy-huquqiy va moliyaviy_ mexanizmlarini takomillashtirish, bu jarayonga jamoatchilikni jalb qilish hamda korrupsiyaning oldini olish bo'yicha idoralararo hamkorlik samaradorligini oshirish maqsadida:

1. Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi davlat organlari va tashkilotlari faoliyatida ochiqlikni ta'minlashga oid materiallarni tayyorlash uchun buyurtmalar berish; nodavlat notijorat tashkilotlari, fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarining davlat organlari va tashkilotlari faoliyati ochiqligini ta'minlashga qaratilgan loyihalarini hamda bu borada o'tkaziladigan tadqiqotlarini va ijtimoiy so'rovlarini moliyalashtirish; korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishga ko'maklashish.

2. Agentlikda Jamoatchilik nazoratini rivojlantirish jamg'armasi tashkil etish orqali faoliyati samaradorligini oshirish belgilandi,

O'zbekiston Respublikasida davlat lavozimlarini va davlat xizmatining ayrim lavozimlarini egallab turgan shaxslarning xarajatlari ustidan nazoratni joriy etish kelgusida ko'zda tutilgan, agar ushbu shaxslarning xarajatlari ularning daromadlariga aniq mos kelmasa, ular hisobga olinadi. Daromadlari deklaratsiya qilinishi kerak bo'lgan shaxslar ro'yxatini kengaytirish masalasi ham muhim qadam bo'lib qolmoqda. Ayni paytda, bizning fikrimizcha, korrupsiyaga qarshi samarali kurashish boshqa huquqiy choralarni ham ko'rishni taqozo etadi. Korrupsiyaga qarshi kurashishga oid xalqaro standartlar va normalarni keng joriy qilish hamda Korrupsiya uchun jinoiy javobgarlik to'g'risidagi Yevropa Kengashi Konventsiasinining (ETS No 173) -2,3-moddalarida aynan davlat xizmatchilarining faol pora berish va passiv poraxo'rlik haqida dispazitsiyalar

ko'rsatilgan³. Korilayotgan chora-tadbirlarga qaramay, korrupsiya barcha davlat va jamoat mexanizmlarining normal faoliyatiga jiddiy to'sqinlik qilmoqda. Albatta, korrupsiya hamma mamlakatlarda hamisha mavjud bo'lgan. Biz uning ustidan to'lig' g'alaba haqida gapirmayapmiz. Ammo u imkon qadar ko'proq huquqiy to'siqlarni yaratishi kerak, shunda u ijtimoiy va davlat tizimining ustun elementi bo'lishni to'xtatadi.⁴

Korrupsiyaga qarshi kurashning jinoiy-huquqiy mexanizmlaridan biri O'zbekistonda yuridik shaxslarning jinoiy javobgarligini joriy etish bo'lishi kerak.

Shubhasiz, O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi choralarni amalga oshirishdagi asosiy to'siqlardan biri qonunchilik bazasining to'liq shakillanmaganligidir. Biroq, bu yagona muammo emas. Bizning fikrimizcha, korrupsiyaga qarshi davlat siyosatini amalga oshirishdagi eng muhim strategik vazifa - bu jamoatchilik ongini| tubdan o'zgartirish, O'zbekiston jamiyatida korrupsiyani qat'iy va faol rad etish muhitini yaratish konseptual vazifadir

Xulosa qilib shuni ta'kidlaymizki, tarixiy amaliyot, shuningdek, xalqaro va O'zbekiston tajribasi tahlili shuni ko'rsatadiki, puxta o'ylangan va muvozanatli huquqiy siyosat tufayli korrupsiya davlat va jamiyat nazorati ostiga olinishi va sezilarli darajada cheklanishi mumkin,

Birinchidan. davlat xizmati tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish samaradorligi barcha darajadagi mansabdor shaxslarning subyektiv ixtiyoriylik imkoniyatlarini ruxsat etilgan maksimal darajada cheklagan holda qat'iy huquqiy tartibga solishni talab qiladi. Ikkinchidan, davlatning uzoqni ko'zlab, korrupsiyaga qarshi kurash bo'yicha keng ko'lamli siyosati profilaktika salohiyatiga ega bo'lgan keng ko'lamli huquqiy normalarga ega bo'lgan ko'p tarmoqli korrupsiyaga qarshi qonunchilikka asoslanishi kerak. Uchinchidan, korrupsiyaga qarshi kurashishning samarali huquqiy mexanizmini ishlab chiqishda muammoning mohiyatini faqat poraxo'rlik bilan bog'lab qo'ymasdan, bu hodisani keng talqin qilish va tushunishdan kelib chiqish zarur. To'rtinchidan. huquqiy targ'ibot va

³ Korrupsiyaga qarshi jinoyat-huquqiy konventsiya ETS № 173 (Strasburg, 1999-yil 27-yanvar)

⁴ ПФ-5729 29.05.2019 Ўзбекистон Республикасида коррупцияга қарши курашиш тизимини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида <https://share.google/hS2el6b9dlzonoRXD>

tashviqot, fuqarolik jamiyati institutlari, radio, televideniye va internetni korrupsiyaga qarshi kurash mexanizmiga kiritmasdan turib, korrupsiyaga, barcha sohalardagi korrupsioner mansabdor shaxslarga nisbatan rad javobi va murosasizlik muhitini yaratish mumkin emas.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Sh.M.Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi 11.02.2020
2. Sh.M.Mirziyoyev "O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 27.05.2019 yildagi PF-5729-son
4. "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida" gi Ozbekiston Respublikasining Qonuni, 03.01.2017 yildagi O'RQ-419-son
5. "Davlat xizmatida boshqaruv samaradorligini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Prezident Farmoni
6. Korrupsiyaga qarshi jinoyat-huquqiy konventsia ETS № 173 (Strasburg, 1999-yil 27-yanvar)
7. "O'zbekiston Respublikasi korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi faoliyatini yanada takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 07.12.2021 yildagi PQ-34-son
8. [Lex,uz](http://Lex.uz)